

FARG'ONA VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT

(2022-yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 3 931,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 34,7 ming kishiga yoki 0,9 %ga o'sdi.

2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra doimiy aholi soni 3 931,1 ming kishiga yetdi.



Tirik tug'ilganlar soni 45,0 ming kishi



2022-yil boshiga nisbatan 34,7 ming kishiga yoki 0,9 %ga o'sgan



O'lganlar soni 8,9 ming kishi



Shahar aholisi 2 207,8 ming kishi



Nikohlar soni 10,8 ming birlik




Qishloq aholi soni 1723,3 ming kishi



Ajrimlar soni 2,5 ming birlik




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022-yil 1-iyul holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022-yil 1-iyul holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 302,3 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (7,7 %) va Quva tumanida 268,0 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni So'x tumanida 81,0 ming kishini (2,1 %) va Quvasoy shahrida 97,8 ming kishi (2,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2021-yilning mos davriga nisbatan Qo'shtepa tumanida 2,7 %ni va Dang'ara tumanida 2,4 %ni, Uchko'prik tumanida 2,4 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Qo'qon shahrida 1,5 % va Beshariq tumanida 1,6 %ni tashkil etdi.


Shahar qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulushi, %da



Hududlar kesimida shahar va qishloq aholisining taqsimlanishi
(2022-yil 1-iyul holatiga, %da)




Erkaklar va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi, %da




Hududlar kesimida erkak va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi (2022-yil 1-iyul holatiga, %da)

Erkaklar




Ayollar



Tug'ilish. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 45,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,2 promilleni tashkil etdi hamda 2021-yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega oshganligi kuzatildi (2021-yilning yanvar-iyul oylarida 22,9 promille bo'lgan).

Hududlar kesimida tug'ilish koeffitsiyenti (2022-yil yanvar-iyun 1000 aholiga nisbatan, promille)





Tug'ilish koeffitsiyenti

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.


Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(2022-yil yanvar-iyun oylari bo'yicha, ming kishi)

2022-yil



Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(yanvar-iyun)

Yillar




Ming kishi

Vafot etganlar. 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 8,9 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,3 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,9 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,4 foizi o‘simtalardan, 8,2 foizi nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 4,6 foizi ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 0,9 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 13,7 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro‘yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 352 nafarni tashkil etib, ularning 37,2 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 35,5 foizi nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 11,6 foizi tug‘ma anomaliyalardan, 0,6 foizi ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 4,0 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,1 foizi yuqumli vaparazitar kasalliklardan va 8,0 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



Tabiiy o'sish. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 36,1 ming kishini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 1,2 ming kishiga (2021-yilning yanvar-iyun oylarida 34,9 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Farg'ona viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (ming kishi)
(yanvar-iyun)
Yillar




Nikoh. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 10,8 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,6 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-iyun, ming)




Hududlar kesimida tuzilgan nikoh koeffitsiyenti (2022-yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Nikohdan ajralishlar. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 2,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi.


Farg'ona viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot

(yanvar-iyun, ming)



Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti

(2022-yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Aholi migratsiyasi

(2022-yil yanvar–iyun, kishi)



Migratsiya. 2022-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4568 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6031 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosini minus 1463 kishi bo'lib, 2021-yilning o'tgan shu davrida minus 2258 kishi bo'lgan.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida migratsiya saldosining eng yuqori kamayishi darajasi Marg'ilon shahrida minus -595 kishi va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona shahrida 678 kishi qayt etildi.



Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi. tel:(373) 249-87-32